ANTONIMLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Manzura Qarshieva
AIFU magistranti

Annatatsiya. Ushbu maqolada oksimoron birikmalarida antonimlarning ifodalanish xususiyatlari ya'ni, o'zaro qarama-qarshi manoga ega bo'lgan so'zlarning birikib, o'zgacha yangi badiiy mazmun hosil qilishi, shu bilan birga antonim va oksimoronlarning badiiy matnlardagi vazifalarini, ularning ma'no ifodalay olish darajasini ilmiy hamda nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlanadi. Oksimoronning stilistik ma'no jihatlari, adabiy asarlarda qo'llanilishi va aynan antonimlar orqali hosil qilingan badiiy obrazlarga ham e'tibor beriladi. Tadqiqot davomida adabiy asarlardan olingan namunalarni ma'no jihatdan chuqur o'rganish orqali oksimoron va antonimlarning o'xshash hamda farqli jihatlari yoritilib, jahon va o'zbek adabiyotilaridan keltirilgan misollar asosida oksimoronning mazmuniy qatlamlari hamda stilistik funksiyalarini keng ko'lamda ochib beradi. Bundan tashqari, ushbu yo'nalish yuzasidan chuqur izlanish va tadqiqotlar olib borish nafaqat tilshunoslikda balki, adabiyotshunoslik sohalari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi, ayniqsa insonning badiiy tafakkurini oshirib, adabiyotning nozik jabhalarini tushunish uchun ham zamin yaratadi. Ushbu maqolaning asosiy amaliy ahamiyatlaridan biri shundaki, u nafaqat tilshunoslik sohasida balki, adabiyotshunoslik sohasida ham izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun amaliy va nazariy jihatdan alohida ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Oksimoron, antonimya, stilistik ma'no, emotsional ta'sir, badiiy ifoda, qiyosiy tahlil, semantik ziddiyat, badiiy ifoda, qarama qarshilik, stilistik vosita, semantik ziddiyat.

Abstract. This article delves into the characteristics of antonyms within oxymoronic expressions-specifically, how words with opposing meanings combine to create novel artistic content. It examines the roles of antonyms and oxymorons in literary texts, analyzing their capacity to convey meaning from both scientific and theoretical perspectives. The study pays particular attention to the stylistic nuances of oxymorons, their application in literary works, and the artistic imagery formed through antonyms. By thoroughly analyzing examples from literary texts, the research highlights the similarities and differences between oxymorons and antonyms, exploring the semantic layers and stylistic functions of oxymorons through examples from world and Uzbek literature. Furthermore, the article underscores the significance of in-depth research in this area, emphasizing its theoretical and practical relevance not only in linguistics but also in literary studies. Such exploration enhances artistic thinking and fosters a deeper understanding of the subtleties within literature. One of the primary practical implications of this

ISSN 3030-3907

article is its value to researchers in both linguistics and literary studies, offering both theoretical insights and practical applications.

Key words. Oxymoron, antonymy, stylistic meaning, emotional impact, literary expression, comparative analysis, semantic contradiction, artistic expression, opposition, stylistic device.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности использования антонимов в оксюморонных выражениях то есть, как слова с противоположными значениями объединяются для создания нового художественного содержания. Анализируются функции антонимов и оксюморонов в литературных текстах, их способность передавать смысл с научной и теоретической точек зрения. Особое внимание уделяется стилистическим аспектам оксюморонов, их применению в литературных произведениях и художественным образам, созданным с помощью антонимов. Путем тщательного анализа примеров из литературных текстов исследование выявляет сходства и различия между оксюморонами и антонимами, исследуя семантические уровни и стилистические функции оксюморонов на примерах из мировой и узбекской литературы. Кроме того, статья подчеркивает важность глубокого изучения данной темы, акцентируя ее теоретическую и практическую значимость не только в лингвистике, но и в литературоведении. Такое исследование способствует развитию художественного мышления и более глубокому пониманию тонкостей литературы. Одним из основных практических аспектов данной статьи является ее ценность для исследователей как в области лингвистики, так и в области литературоведения, предлагая как теоретические, так и практические подходы.

Ключевые слова. Оксюморон, антонимия, стилистическое значение, эмоциональное воздействие, художественное выражение, сравнительный анализ, семантическое противоречие, художественное выражение, противопоставление, стилистическое средство.

Kirish. Til – bu insonning ichki kechinmalarini, xohish, istaklarini va hissiyotlarini ifodalovchi asosiy vositadir. Til qanchalar leksik jihatdan boy b'lsa, u adabiy til foydalanuvchilari uchun shuncha keng imkoniyatlar yaratadi. Muallifning iqtidoriga ko'ra, badiiy asar kitobxon diqqatini jalb etishi, obrazlarni jonli va ta'sirchan tasvirlashi hamda chuqur ma'no ifodalay olishi mumkin. Asarning ma'naviy himmatini oshiruvchi vositalardan biri bu oksimoron va antonimlardir. Bugungi kunda antonimlarning oksimoronda samarali usulda foydalana olish hamda adabiyotlarda foydalanilgan va foydalanib kelinayotgan oksimoronlarning tag ma'nolarini o'quvchiga tushunarli hamda oson tarzda yetkazib bera olsh masalasi

ISSN 3030-3907

dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda oksimoronlar nafaqat stilistik vosita sfatida, balki, tilning semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglash, badiiy ifoda vositalarini kengaytirish va asarning emotsional ta'sirchanligini oshirishiruvchi vositadir. Nazariy jihatdan olib qarasak, antonim va oksimoron ikkisi ham o'zaro zid ma'noli so'zlarning birikuvidan hosil bo'luvchi stilistik vositalar bo'lishi mumkin, lekin ular adabiy matnlarga turlicha ma'no va mazmun bag'ishlaydi. Oksimoron - qahramonning qarama-qarshi his tuyg'ularini yoki asardagi murakkab holatlarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazishda samarali usullardan biri bo'lsa, antonim esa qarama-qarshi manoli so'zlarni ifodalash orqali voqelikdagi zidliklarni ko'satish vositasi sifatida alohida ajralib turadi. Bundan ko'rish mumkunki, antonim faqatgina bir-birini inkor etuvchi so'zlar juftligidir. Ular ishtirokida asarda yangi ma'no yaratib bo'lmaydi, faqatgina solishtirma ta'sirni aks ettirish mumkin. Masalan, uzun va qisqa, baland va past. Ammo, oksimoron antonimdan farqli o'laroq, o'zida zid ma'noli paradoksal so'zlarni birlashtirib, jumlaga mazmun va tasviriy ifoda baxsh etadi. Buni esa *shafqatsiz mehribonlik* yoki *quloqni qomatga keltiruvchi sokinlik* kabi misollar orqali oksimoronning asl ma'no maqsadini yanada chuqurroq tushunish mumkin.

Avvalo, antonim tushunchasiga to'xtalsak, antonim — bu ikki yoki undan ortiq zid manoli so'zlar yig'indisidir. Masalan, *katta* va *kichik, issiq* va *sovuq, yaxshi* va *yomon* kabi so'zlar antonim hisoblanadi. Bunday so'zlar tilning semantik boyligini ko'rsatib uning ifoda imkoniyatlarini kengayishiga yo'l ochadi. Antonimlarning oksimoronda aks etish hodisasi bo'lsa qarama-qarshi semantik qatlamlarni bitta birikmada uyg'unlashtirib, matnga psixosemantik chuqurlik bag'ishlaydi. Oksimoronlar esa adabiy matnda turli xil xissiy emotsiya ifodalashi mumkin. Misol uchun, biron hodisaga nisbatan dramatik ta'sir va hissiy chuqurlik berishi mumkin. Bu esa o'quvchida kuchli hissiy ta'sir uyg'otib uning ichki dunyosini larzaga keltiradi. Obrazlilikni va badiiylikni oshiradi; Matnga badiiylik va obrazlilik qo'shish orqali asarda reallikni shakillantiradi. O'quvchining e'tiborini jalb etishga hizmat qiladi; O'quvchini voqealar rivojiga bo'lgan qiziqishini oshiradi va foydalanilgan iboraning tag ma'nosini tushunishga yo'l ochadi. Xususan, oksimoron adabiy janrlarda ko'p uchraydigan janr turidan hisoblanmasa-da, oksimoron qo'llanilgan asarda kuchli pafos va obraz yaratib uning adabiy himmatini oshiradi.

Misol uchun Erkin Vohidovning bir she'rida uchraydigan ushbu jumlaga e'tibor qaratsak: *seni kutmoq naqadar shirin azob* iborasi klassik oksimoronning yaqqol namunasidir. Ushbu birikmada *shirin* va *azob* so'zlari ma'no jihatdan qarama-qarshi — ya'ni antonim hisoblanadi. Odatda "*azob*"og'riq va ruhiy qiynoq tushunchasini anglatadi, "*shirin*" so'zi esa uning aksi; huzur, yoqimlilik, quvonch kabi hissiyotlarni o'zida aks ettiradi. Ammo bu ikki antonim so'z badiiy kontekstda

ISSN 3030-3907

yonma-yon qo'llanilganda, ulardan kuchli poetik tasvir yuzaga kelib antonimlarning asl ma'nosi o'zgaradi– ya'ni oksimoron yuzaga keladi. Bu ibora orqali shoir sevgilisini kutishning azobli bo'lishiga qaramay, shu kutishning o'zi uning qalbiga shirin tuyg'ular bag'ishlashini ifodalagan.

Asosiy qism. Mazkur taxlil doirasida, oksimoronning lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, ushbu atama yunoncha "*oxys*" o'tkir va "*moros*" ahmoq, nodon ya'ni, *"o'tkir ahmoq"* yoki "*keskin nodon"* degan ma'nolarni anglatadi. Shu bilan birga, oksimoron semantik jihatdan zid tushunchalarni birlashtiruvchi retorik figurdir. Oksimorondan foydalanib muallif murakkab obrazlar va g'oyalarni tiniqroq ifodalashi mumkin. Masalan, *tartibli betartiblik* iborasi orqali muayyan vaziyatdagi tartibsiz holat ichidagi tartibni ko'rsatishi mumkin. Shuni alohida takidlash lozimki, ushbu fenomen yuzasidan bir qancha olimlar izlanish olib borib, o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tishgan. Ulardan biri buyuk ingliz olimi Geoffrey Leech bo'lib, u tilning semantik stilistik bo'limlar yuzasidan olib borgan izlanishlari davomida oksimoron atamasini "*condensed paradox*" ya'ni o'zbek tilida *siqilgan paradoks* deb ataydi. U tilning semantik-struktural, sintaktik va fonetik jihatlarni ko'rib chiqib, oksimoronning poetik dramatizm va e'tiborni tortish funksiyalarini obdon yoritadi. Geoffrey Leechning fikriga ko'ra, oksimoron – bu oddiy paradoxdan farqli o'laroq, butun bir fikrning, hissiyotning yoki qarama-qarshi ma'no qatlamining birgina frazada siqib joylashtirilishidir. Ushbu nazariyaga asoslanib u oksimoronni siqilgan paradoks deb ataydi. Geoffrey Leech oksimoronni so'z san'atlari ichidan ajratib oladi va alohida tahlil qilib, uning maksimal uyushtirilganlik va siqimlilik jihatiga alohida urg'u beradi.

Keyinchalik buyuk ingliz tilshunos olimi Donald Corbett ham oksimoron tushunchasi ustida chuqur izlanishlar olib boradi. Geoffrey Leechning fikrlaridan farqli o'laroq u oksimoron atamasini yanada aniqroq qilib izohlab beradi. U O'zining "Figures of Speech" asarida oksimoronlarni ikki turga: siqilgan (compact) va kengaytirilgan (extended) turlarga bo'lib, ularning stilistik-poetik funksiyalarini batafsil tahlil qilgan. Donald Corbettning fikriga ko'ra siqilgan oksimoron faqat ikki antonim so'z bir frazada yonma-yon kelishi va dramatik paradoks hosil qilishidir. Kengaytirilgan oksimoron esa bir nechta jumlada yoki satrda antonim kontseptsiyalar aralashuvi sodir bo'lib, murakkab obraz va psixosemantik qatlamlarni yaratishidir. Uning fikricha, siqilgan oksimoron faqat ikki antonim so'z bir frazada yonma-yon kelishi va dramatik paradoks hosil qilishidir, masalan: *deafening silence*. Kengaytirilgan oksimoron esa bir nechta jumlada yoki satrda antonim kontseptsiyalar aralashuvi sodir bo'lib, murakkab obraz va psixosemantik qatlamlarni yaratishidir. Kengaytirilgan oksimoron bu siqilgan oksimoronlarda kuzatiladigan ikki-so'zlik ziddiyatdan farqli o'laroq, ko'proq so'z, ibora hattoki, satr

ISSN 3030-3907

darajasida paradoksal ifodani hosil qilishi mumkin. Misol uchun "*yolg'onlardan rost so'z topdim, rostlarda yolg'on*"jumlasini olaylik, bu shakl ko'proq epik yoki narrativ matnlarda qo'llanib, personajlarning ichki ziddiyatlarini kengaytirib ochib beradi. Donald Corbett siqilgan va kengaytirilgan oksimoronlarga ajratish bilan bir qatorda ularni maqola va she'riyat sohasiga qo'shmasdan alohida-alohida qarash fikrini taklif qilgan. Siqilgan oksimoron matnga dramatik urg'uni kuchaytirishda qo'llanilsa, kengaytirilgan oksimoron asarda namoyon bo'lgan qahramonlar o'rtasidagi ichki kurash va ruhiy ziddiyat qatlamlarini chuqurroq ochib berishi bilan ustunlik qila olishligini ta'kidlagan.

Yana bir buyuk ingliz adabiyotshunosi va tanqidchisi Meyer Howard Abams oksimoron atamasini quidagicha izohlaydi: oksimoron bu nafaqat asarda ziddiyatni ko'rsatuvchi juftlik balki, muallif tomonidan voqea-hodisaning mazmuniy chuqurligini ham ochib beruvchi figura bo'lishi lozim, shu bilan birga oksimoron antonimdan farqli o'laroq muallif tomonidan ongli ravishda o'ylab topilgan stilistik ifoda ekanini takidlaydi. Ya'ni, oksimoronning asosiy asarda bajaradigan vazifasi ziddiyatni va qarama-qarshilikni ifodalash emas balki, hodisaga nisbatan ma'lum bir ma'noviy chuqurlikni aks ettiruvchi mazmunni ifodalashdir. Misol uchun, Shekspirning Romeo va Julieta romanida Romeo tilidan aytilgan "*xayrlashish juda shirin qayg'u*" iborasini qarama—qarshilikni bir vaqtning o'zida sevgan insonidan ketish og'rig'i va quvonchining chuqur haqiqatini namoyon qilish uchun maqsadli ravishda foydalangan. Bu yerda"*shirin*" va "*qayg'u*" kabi o'zaro qarama- qarshi bo'lgan so'zlardan foydalanib oksimoroni hosil qilingan. Biroq bu so'zlar asarda ko'proq ziddiyatni emas balki, qahramonning qalbidan o'tayotgan chalkash his tuyg'ularni namoyon qilib kelgan. Ya'ni, Romeoga seviklisi Julettadan ayrilishi qayg'uli bo'lishiga qaramay u bundan mamnun ekanini, ayni vaziyatda bu eng to'g'ri yo'l ekanini ifodalaydi.

Endi eas o'zbek olimlaridan Xurshid Eshmurodov va Hasan Eshbekovlarning mazkur yo'nalishda olib brogan izlanishlariga ham nazar tashlasak, ular O'tkir Hoshimovning asarlarida uchraydigan antonim va oksimoronlarni bir biriga zid ma'noli tushunchalarning juftligi sifatida o'rganib muallifning "*Ikki eshik orasi", "Bahor qaytmaydi"," Ikki karra ikki besh"* kabi asarlarida uchraydigan qarama-qarshi iboralarni qanday uslubda va nima maqsadda qo'llanganini ilmiy tomonlama taxlil qilganlar. Ular "*jim tovush*", "*achchiq shirinlik*" va "*ertalab kechqurun*" kabi iboralarni misol sifatida keltirib, ushbu so'zlarning asarda tutgar o'rni hamda ro'lini yoritib berganlar. O'tkir Hoshimov romanlarida uchraydigan oksimoronlar va antonimlar asarda aks etgan hayotiy ziddiyatlarni, inson ruhiyatini, va ijtimoiy muammolarni yanada kengroq ochib beradi, hamda voqealar rivoji kitobxonga tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Antonimlar ham badiiy imkoniyatlari

ISSN 3030-3907

jihatidan oksimorondan qolishmaydi. Ularning badiiy asarlarda tutgan o'rni ham beqiyosdir. Antinim fikrning keskinligini, ma'noning kuchliligini ifodalash bilan bir qatorda o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, harakterlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatishda yoki qarama-qarshi voqea hodisalarni ifodalashda antonimlar maxorat bilan foydalaniladi. Bunday holatlar buyuk alloma Alisher Navoiy asarlarida ham ko'p uchraydi. Masalan, *haq-g'ayrihaq*, *ziyo-zulmat*, *yaxshi-yomon* kabi antonimlar orqali insoniy fazilatlar mahorat bilan yoritilgan bo'lsa, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida uchraydigan *boy-kambag'al, adolat-zulm* kabi antonimlar jamiatdagi tabaqalanishni va jamiatda uchraydigan nohaqliklarni yoritishga hizmat qilgan.

Zidliklar uyg'unligida yashiringan ma'no qatlamlariga nazar tashlasak, muallif o'z asarlarida jumlalarda namoyon bo'lishini mumkin bo'lgan bir qancha stilistik funksiyalarni yaratishi ham mumkin. Paradoksal dramatizm yaratish: oksimoronlar qarama-qarshi so'zlarni birlashtirish orqali, asardagi ichki ziddiyatni yaqqol namoyon qilib unga dramatik kuch bag'ishlaydi. *Sokin faryod* va *umidsiz umid*, kabi kuchli hissiy holatlarni namoyon qilish bilan bir qatorda o'quvchiga ta'sirchanlik baxsh etuvchi, uni chuqur o'yga toldiruvchi oksimoronlar bunga yaqqol namuna bo'la oladi.

Muallifning iqtidordan kelib chiqib oksimorondan ironiya, kinoya, mazah shuningdek, yashirin tanqid ifodasini berishda ham foydalanish mumkin. Bunga misol sifatida *aqilsiz dono* yoki *tushunarli chalkashlik* kabi misollarni keltirish mumkin.

Estetika ta'sir yaratish: she'riyatda estetik ta'sir yaratish shu bilan birga obrazlarni boyitish va o'quvchining ko'z oldida voqea yoki hodisani jonlanlantirish, uni o'quvchiga tasavvur qildira olish imkonini ham beradi. Buni quloqni kar qiluvchi sukunat oksimoron misolida yanada yaxshiroq tushunish mumkin.

So'zlar o'yinidagi ziddiyatlar uyg'unligi bizni quyidagi xulosaga olib keladi: antonimlarning oksimoronda namoyon bo'lishi tilning nafaqat estetik, balki semantik imkoniyatlarini boyishiga keng yo'l ochuvchi stilistik vosita sifatida e'tirof etiladi. O'zaro qarama qarshi ma'noli so'zlarning uygunlashib, yangidan yangi obraz va chuqur mazmun yaratishi, avvalo nutqning obrazliligini oshiradi, kitobxoning hayolini yangi so'qmoqlarga yetaklab unda kuchli hissiy aks sado uyg'otadi. Bu holat ayniqsa badiiy adabiyotda o'zgacha dramatik chuqurlik berish vositasi sifatida o'zgacha e'tiborga molikdir. Antonimlar ko'p hollarda fikrni keskinlashtirib ma'noni bo'rttirishga hizmat qiladi. Asosan ular voqea yoki hodisani taqqoslash orqali voqelikdagi tafovutni aniq ko'rsatilb beradi yoki qarama-qarshilikni namoyon qiladi. Ayniqsa, jamiatdagi nohaqliklarni, adolatsizliklarni, insonlar o'rtasidagi moddiy tabaqalanishni ochiq oydin yaqqol namoyon qiladi.

ISSN 3030-3907

Oksimoronda esa antonimlarda kuzatilmaydigan ba’zi ifoda vositalar namoyon bo’ladi. Ular faqatgina qarama-qarshilikni ifodalash uchungina emas balki, chuqur ma’no anglatuvchi, o‘quvchini o’yga toldiruvchi shuningdek, murakkab hayotda uchraydigan realliklarni ochib beruvchi sehrli vosita desak mubolag’a bo’lmaydi.
Ushbu stilistik vositalar doirasida shuni aytish mumkinki, ular asarlarda faqatgina ziddiyatni emas asarga turli xil ma’no va mazmun baxshida etadi, muallifning asarda namoyish ettirishni ko’zlagan maqsadini to’la to’kis samarali ifodalashda ajralmas vosita hisoblanadi. Bu kabi stilistik vositalardan unumli foydalana olish yozuvchining mahoratli ekanidan dalolat beribgina qolmay, tilning boy ekanini ham isbotlovchi dalil bo’la oladi. Bu boradagi o‘qish va izlanishlar o’quvchining til sezgirligini, tahlil qila olish va fikrlayolish qobiliyatini shakillantirishda muhim rol o’ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry.-London: Longman, 1969.-147–166p.
2. Corbett. P. J. Classical Rhetoric for the Modern Student.-New York: Oxford University Press, 1990.-p.72.
3. Leech.G. N .Principles of Pragmatics.-London: Longman, 1983-. p.41.
4. Leech.G.N. Language in Literature: Style and Foregrounding.- Harlow: Pearson Longman, 2008.-p.62.
5. Komilova G. Antonim va so‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi. – O’zbekiston: Academic research in educational sciences jurnal, 2021.-155-159b.
6.Kamoliddinova V. Oksimoronning metodologik va semantik xususiyatlari.- O’zbekiston: ilmiy nashriyot markazi, 2020.-37 b.
7. Eshmurodov H., Eshbekov H. The phenomenon of oximoron and antithezis in the worlds of O‘tkir Hoshimov.- O’zbekiston International journal on integrated education,2020.-32-34 b.
8. Cho'liyev R., Nazarova S. – O’zbekiston Naushniy impuls xalqaro ilmiy jurnal, 2022.-32-57b.

ISSN 3030-3907